

Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

Yanvar-sentabr 2019 yil

E'tibor bering:

2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 62,8 % tashkil etdi.

14485 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar tashkil qilindi.


2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 27,9 birlikni tashkil qildi.

Toshkent shahrida hozirgi vaqtida kichik tadbirkorlik (biznes)ni rivojlantirish bo'yicha sezilarli darajada e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash, shuningdek, litsenziyalar va ruxsatnomalarning rasmiylashtirilishi shaffofigini tubdan soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmoxda. Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirildi.

Natijada, 2019 yilning yanvar-sentabrida 14485 ta yangi kichik korhona va mikrofirmalar tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,6 barobar ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (43,0 %), sanoat tarmog'ida (16,0 %), qurilish tarmog'ida (9,4 %), yashash va ovqatlanishda (6,5 %), tashish va saqlash (3,4%) aloqa va axborotlashtirish (3,4 %) sohasiga to'g'ri keladi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (1,1%)

2019 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, foizda



2019 yilning yanvar– sentabrida kichik tadbirkorlikning asosiy ko’rsatkichlari

	Ulushi	2018 y.	2019 y.	(+/-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlik	58077	71293	12965
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar	birlik	8899	14485	4695
YaHM	%	64,7	62,8	-1,9
Sanoat	%	71,6	66,9	-4,7
Investitsiya	%	51,6	48,2	-3,4
Qurilish	%	73,6	74,6	1,0
Savdo	%	76,2	72,4	-3,8
Xizmatlar	%	50,2	46,5	-3,7
Yuk tashish	%	70,8	68,3	-2,5
Yuk aylanmasi	%	6,2	6,1	-0,1
Yo’lovchi tashish	%	78,1	79,0	0,9
Yo’lovchi aylanmasi	%	80,0	79,0	-1,0
Eksport	%	22,8	20,0	-2,8
Import	%	68,9	61,2	-7,7

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona
va mikrofirmalar**


(birlikda)

	yanvar-sentabr 2018 y.	yanvar-sentabr 2019 y.
Toshkent sh.	8899	14485
tumanlar:		
Uchtepa	716	1902
Bektemir	185	498
Yunusobod	1261	1701
Mirzo Ulug'bek	1030	1525
Mirobod	792	1089
Shayxantoxur	907	1324
Olmazor	901	1699
Sergeli	561	858
Yakkasaroy	775	991
Yashnabod	688	1087
Chilonzor	1083	1811


2019 - yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Uchtepa tumanida - 1902 ta, Chilonzor tumanida - 1811 ta, Yunusobod - 1701 tani tashkil etgan, O'rtacha ko'rsatkich esa Olmazor tumanida - 1699 ta, Mirzo-Ulug'bek - 1525 ta, Shayxantohur - 1324, Mirobodda—1089 ta va Yashnabod tumanida -1087tani tashkil qilgan.

Eng past ko'rsatkichni Yakkasaroyda-991ta, Sergeli tumanida - 858 ta va Bektemirda - 498 tani tashkil etgan.

**2019 yil yanvar-sentabr holatiga yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar
bo'yicha ulushi, foizda**



2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Uchtepa tumanida-13,1%, Chilonzor tumanida-12,5 %, Olmazor tumanida -11,7%, Yunusobod tumanida - 11,7 %, Mirzo-Ulug'bek tumanida-10,5%ni tashkil etgan. O'rtacha ko'rsatkich esa, Shayxontohur tumanida -9,1%, Mirobod tumanida -7,5%, Yashnabod tumanida -7,5 %, Yakkasaroy tumanida - 6,8%, Sergeli tumanida- 5,9% va Eng past ko'rsatkich Bektemir tumanida 3,4 % kuzatildi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan
kichik korxona va mikrofirmalar**

(birlikda)

	yanvar-sentabr 2018 y.	yanvar-sentabr 2019 y.
Jami	8899	14485
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	154	156
Sanoat	1699	2316
Qurilish	1101	1364
Savdo	2450	6224
Tashish va saqlash	387	492
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	767	941
Axborot va aloqa	464	501
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	120	194
Boshqa turdag'i xizmatlar	1757	2297

2019 yil yanvar-sentyabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar eng ko'p **savdoda 6224** ta, shuningdek :

sanoatda - 2316 ta;

qurilishda - 1364 ta;

xizmatda - 941 ta

Axborot va aloqa - 501 ta


tashish va saqlashda - 492 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar

	yanvar-sentabr 2019 y.	yanvar- sentabr 2018 y.	farqi (+-)
Toshkent sh.	14485	8899	5586
Uchtepa tumani	1902	716	1186
Chilonzor tumani	1811	1083	728
Olmazor tumani	1699	901	798
Yunusobod tumani	1701	1261	440
Mirzo-Ulug'bek tumani	1525	1030	495
Shayxontohur tumani	1324	907	417
Mirobod tumani	1089	792	297
Yashnabod tumani	1087	688	399
Yakkasaroy tumani	991	775	216
Sergeli tumani	858	561	297
Bektemir tumani	498	185	313


2019 yil yanvar-sentabrida yangi tashkil topgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori o'sish Uchtepa tumanida – 1186 ta, Olmazor tumanida - 798 ta, Chilonzor tumanida - 728 tani tashkil etdi. O'rtacha ko'rsatkich Mirzo-Ulug'bek tumanida– 495ta, Yunusobod tumanida - 440 ta, Shayxontohur tumanida bu ko'rsatkich -417 ta, Yashnabod tumanida –399 ta va Bektemir tumanida –313 tani tashkil etdi. Eng past ko'rsatkich Sergeli va Mirobod tumanlarida –297tadan, Yakkasaroy tumanida –216 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tumanlar, birlikda




2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Yakkasaroy tumanida 55,2ta, Bektemir tumanida 52,1 ta, Mirobod tumanida 41,7 Chilonzor tumanida 36,9. O'rtacha ko"rsatkich Mirzo-Ulug'bek tumanida 28,9 va Yunusobod tumanida 27,6,birlikdan, Uchtepa tumanida 26,7, Sergeli tumanida 22,9, Yashnabod tumanida 22,1 va Olmazor tumanida- 21,5, qayd etildi. Eng past ko'rsatkich Shayxantohur tumanida 19,7 birlik bo'lib qolmoqda.

2019 yilning yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



Agar, 2018 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 23,3 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 27,9 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 4,6 birlikka ko'paydi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga.




Quyida, 2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 66,9 %, qurilishda - 74,6%, investitsiyada - 48,2%, savdoda - 72,4 %, eksportda - 20,0 %, importda - 61,2 % va xizmatlar sohasidagi - 46,5% ulushi aniq ko'rsatilgan.

2019 yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-sentabr holatiga, %

2019 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 62,8 %ni tashkil qildi (2018 yilning yanvar-sentabrida 64,7 %). YaHM tarkibida pasayishi yirik korxonalar ulushi oshishi bilan tushuntiriladi.



Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



**2019 yil yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning
hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, (%)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmat	Investitsiya
Toshkent sh.	66,9	74,6	46,5	48,2
<i>tumanlar:</i>				
Uchtepa	85,9	99,1	81,7	70,6
Bektemir	68,9	45,0	93,2	93,4
Yunusobod	86,7	61,0	31,0	56,9
Mirzo-Ulug'bek	43,9	70,8	52,3	51,5
Mirobod	27,5	58,1	30,2	41,5
Shayxontohur	54,9	63,9	47,8	60,2
Olmazor	89,5	94,4	68,0	73,7
Sergeli	77,9	97,3	45,3	15,1
Yakkasaroy	86,0	94,9	70,7	90,1
Yashnabod	74,1	86,8	33,8	59,9
Chilonzor	86,3	70,6	51,0	21,8

Hududlar bo`yicha **sanoat** sohasining yuqori ulushini Olmazor (89,5 %), Yunusobod (86,7 %), Chilonzor (86,3 %) va Yakkasaroy (86,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Qurilishda - Uchtepa (99,1%), Sergeli (97,3 %), Yakkasaroy (94,9 %), Olmazor (94,4 %) va Yashnabod (86,8 %), tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Bektemir (99,1 %), Uchtepa (81,7 %), Yakkasaroy (70,7 %) va Olmazor (68,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Investitsiyada - Bektemir (93,4 %), Yakkasaroy (90,1 %), Olmazor (73,7%), Uchtepa (70,6%) va Shayxontohur (60,2%) tumanlari tashkil etadi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 2019 yilning yanvar– sentabrida

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 26174,7 mlrd so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 66,9)

14871,5 mlrd so'mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 48,2 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 148,1%ni tashkil qildi;

8420,5 mlrd so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari hajmining 74,6%) bajarildi va 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 126,2%ni tashkil qildi;

21427,1 mlrd so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmining 46,5) 2018 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,1%ni tashkil qildi;


Chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 72,4% yoki 19866,5 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 101,3%ni tashkil qildi;) shakllantirildi;

453,8 mln.dollari (umumiyligi export hajmining 20,0%) miqdorida mahsulotlar (Tovar va xizmatlar) export qilindi, bu esa 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan 97,2% tashkil qildi;

Avtomobil transporti yuk aylanmasining 68,3% (jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,5%) ko'payishi ta'minlandi;


Yo'lovchi aylanmasining esa 79,0% (umumiyligi yo'lovchi aylanmasining 1,0%) ni tashkil qildi;

Kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmat)larning, jami eksport hajmidagi ulushi, %




2019 yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar, xizmatlar)ning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Bektemir tumanida - 98,6 %, Chilonzor tumani - 92,4 %, Yakkasaroy tumani - 85,1 %, Yashnabod tumani - 79,1 %, Uchtepa tumani - 69,0 %, Olmazor tumani - 51,9 %, Sergeli tumani - 31,3 %, Shayxontohur tumani - 28,1 %, va Yunusobod tumanida - 13,6 %, eng past ko'rsatkichni Mirzo-Ulug'bek - 11,2 % va Mirobod tumanlari - 2,0% ni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yashnabod tumani (3350,5 mlrd.so'm), Olmazor tumani (3202,2 mlrd.so'm), Sergeli tumani (2958,6 mlrd.so'm) Bektemir tumanida (2828,1 mlrd.so'm) Yunusobod tumani (2677,7 mlrd.so'm) Chilonzor tumani (2116,4 mlrd.so'm) O'rtacha korsatkich Shayxontohur tumani (2065,0 mlrd.so'm) Uchtepa tumani (1900,1 mlrd.so'm)da, Yakkasaroy tumanida (1820,4 mlrd.so'm) Mirzo-Ulug'bek (1738,8 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keladi. Mirobod tumanida (1516,7 mlrd.so'm), ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




2019 yil yanvar-sentabr holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (89,5%), Yunusobod tumani (86,7%), Chilonzor tumani (86,3%), Yakkasaroy tumani (86,0%), Uchtepa tumani (85,9%), o'rtacha korsatkich Sergeli tumani (77,9%), Yashnabod tumani (74,1). Bektemir tumani (68,9%) Shayxontohur tumani (54,9%), Mirzo Ulug'bek tumani (43,9%) va Mirobod tumanida (27,5%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.


2019 yil yanvar-sentabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Yunusobod (2734,8 mlrd.so'm), Chilonzor (2547,2 mlrd.so'm), Shayxontohur tumani (2389,6 mlrd.so'm), Uchtepa tumani (2382,9 mlrd.so'm), Bektemir (2121,9 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




2019 yil yanvar-sentabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yakkasaroy (1032,6 mlrd.so'm), hajmi Mirzo Ulug'bek (1019,8 mlrd.so'm), Mirobod (1014,4 mlrd.so'm), Olmazor (856,4 mlrd.so'm), Yunusobod (855,3 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.




2019 yil yanvar- sentabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Mirzo Ulug'bek (2525,5 mlrd.so'm), Yunusobod (2480,5 mlrd.so'm), Shayxantohur tumanida (2446,3 mlrd.so'm), Chilonzor tumanida (2399,7 mlrd.so'm), va Mirobod (2114,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2019 yil III chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 440 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonaları - 72 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 16,4 %), qurilish - 43 (9,8 %), savdo - 181 (41,1 %), xizmatlar sohasi - 139 (31,6 %).

**2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan
yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**



Hududlar kesimida jami kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining ulushi Mirzo Ulug'bek tumanida (55ta) - 12,5 %, Uchtepa tumanida (53ta) – 12,0 %, Chilonzor tumanida (50ta) - 11,4%, Yunusobod tumanida (47ta) - 10,7 %, Shayxantohur hamda Yashnabod tumanlarida (42 tadan) – 9,5%dan, Mirobod tumanida (29 ta) 6,6%dan, Yakkasaroy tumanida (28ta) - 6,4 %, Sergeli hamda Bektemir tumanlarida (23 tadan) 5,2% danni tashkil qildi.


2019 yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar do'yicha taqsimlanishi foizda.



Kuzatuv ma'lumotlari tahliliga ko'ra, iqtisodiy vaziyatni 9,3% korxonalarda qulay, 78,0% korxonalarda qoniqarli,qurilish sohasida respondentlarning 7,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 81,9 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 10,5 % va 79,6 %, xizmatlar sohasida – 11,5 % va 72,7 %, sanoatda – 4,2 % va 81,9 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 13,9 %, qurilishda – 11,6 %, xizmatlarda – 15,8 % va savdoda – 9,9 %ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil III chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 23,6 % sanoat korxonalari, 27,1 % – savdo, 31,6 % – xizmatlar va 18,6 % – qurilish tarmog'ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rilibotgan chora tadbirdilar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyl iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: A.Yo'ldoshev.

Tel.: (71) 230-88-09, 230-88-29